

## **MAHMUD QOSHG‘ARIYNING “DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARIDA BOLALAR O‘YINI**

**Rasulova Azizaxon Muydinovna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Farg‘ona davlat universiteti

**Madoripova Maftunaxon Tolibjon qizi**

Qo‘qon universiteti maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabasi

***Annotatsiya.** Berilgan maqolada bolalar o‘yinlari va ularning “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirilishi, bu o‘yinlarning bolalar harakati va ruhiyatiga ta‘siri haqida fikr yuritilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются детские игры и их цитирование в работе “Девони луготит Турк”, а также влияние этих игр на поведение и психику детей.*

***Annotation.** The given article reflects on children's games and their quotation in the work “Devoni lexicotit turk”, the influence of these games on the movement and psyche of children.*

Har bir inson umri o‘tib borgan sari bolaligini qo‘msaydi, ko‘z oldiga bolalik davrida o‘ynagan o‘yinlarni keltiradi. “Bo‘ladigan bola boshidan ma‘lum” deganlaridek, kelgusida ulug‘lik darajasiga erishgan buyuk zotlarning aksariyati bolalik davridagi o‘yinlardayoq o‘zining iste‘dodi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda ular tengdoshlari orasida barcha o‘yinlarga bosh-qosh bo‘lganlar. Bunday paytlarda o‘yinlar ularni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib ulg‘ayishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu haqida Mahmud Sattor shunday yozadi: “O‘zingizga ma‘lumki, bolalarni kattalar, yerga ursa ko‘kka sapchidigan koptokka o‘xshatishadi. Chunki Siz biror daqiqa ham harakatsiz, jim o‘tira olmaysiz. O‘yin ishqibozi, o‘yinqaroqsizlar. Hayotingizni ko‘chasiz, o‘yinlarsiz tasavvur qilolmaysiz. Aslida bolalikning eng aziz, o‘ziga xos tomonlari ham shunda-da! Jamiyatga, odamlarga foydasi tegadigan, duyonga mashhur olim-u yozuvchilarning, shoirlarning bolalikda yerga ursa ko‘kka sapchidigan o‘yinqaroq bo‘lganliklari bejiz emas. Bu hol ularda ijodiy tafakkurning o‘sishi uchun benihoya katta ahamiyatga ega”. [3,25]

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham turli bolalar o‘yinlari keltirilgan bo‘lib, bu o‘yinlarning ijro uslubi, o‘ynalish vaqti va undagi o‘yin ashyolarining turli-tumanligi ko‘rinadi. “Devoni lug‘otit-turk”da yog‘och bilan bog‘liq o‘yinlar, koptok bilan bog‘liq o‘yinlar, yong‘oq va tosh bilan bog‘liq

o‘yinlar, suyak bilan bog‘liq o‘yinlar, suv bilan bog‘liq o‘yinlar kabi o‘yin turlari berilganki, ularning barchasi bola rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

Bandal – bosh qismi cho‘moqdan yog‘och. Uning uchini yondirib, kechasi bolalar bir-birlariga o‘qtalib o‘ynaydilar. Buni “ot bandal” deyidilar. Chovgan o‘yinida o‘ynaladi [2,445]. Berilgan bu o‘yin turi yog‘och bilan bog‘liq o‘yinlar sirasiga kiradi.

Mahmud Qoshg‘ariy fikriga ko‘ra, pishitilgan ip koptogi arg‘uchada tushrum deb atalgan. Koptok bilan bog‘liq o‘yin to‘g‘risida u shunday yozadi: “Tuldi – urdi, o‘ynadi. Er tobiqni azri bila tuldi – er koptokni ayri bilan urdi. Bu turklarga xos o‘yinning bir turi bo‘lib, o‘yinchilar o‘yinning oldin o‘zidan boshlashini istasa, u koptokni shunday ayri bilan uradi. Koptokni kim qattiq ursa, o‘yin o‘sha kishidan boshlanadi”. [2,447] Bu o‘yinni koptok bilan bog‘liq o‘yinlar sirasiga kiritish mumkin.

Mahmud Qoshg‘ariyga ko‘ra, turkiy xalqlarda yong‘oq va tosh bilan bog‘liq bolalar o‘yini keng tarqalgan bo‘lib, u bu haqda shunday yozadi: “Kochurma oiun – “o‘n to‘r degan o‘yindir”. Yerga qo‘rg‘onga o‘xshatib to‘rt chiziq chizib, unga o‘nta eshik qilinadi-da, yumaloq tosh, yong‘oq tashlab o‘ynaladi” Unga ko‘ra, bolalar yong‘oq o‘ynaydigan chuqur joy – atich deb atalgan. [2, 31]

Bolalar o‘yinlari orasida suyak bilan bog‘liq o‘yinlar keng tarqalgan bo‘lib, to‘piq o‘yini haqida yozar ekan: “U men bilan otishda bahslashdi”, degan misolni keltiradi. Bunday to‘piq o‘yini keyingi davrlarda ham bo‘lgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, to‘piq o‘ynalganda suyak berkituvchi kishi to‘piqni hamma vaqt yonida olib yurishi shart bo‘lib, bir necha oydan keyin bo‘lsa ham, hammomga o‘xshash nozik joyda bo‘lsa ham, so‘ralgan hamon mana deb ko‘rsatib berishi lozim bo‘lgan. Shuning uchun to‘piq osib yurish odat bo‘lgan bo‘lishi mumkin [2,198]. To‘piq o‘yini xususida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: “To‘piq o‘yini to‘piq suyagini o‘ynovchilardan so‘ralganda, darhol ko‘rsatish sharti bilan, berib o‘ynaladigan pisandali o‘yin. To‘piq o‘ynab bitta o‘tirishga tushdim”. [5]

“Monuz-monuz” – “Mo‘nguz-mo‘nguz” deyilgan bolalar o‘yini suv bilan bog‘liq o‘yinlar sirasiga kiradi. Bu o‘yin quyidagicha: bolalar tiz cho‘kib, dengiz labida (suv bo‘yida) o‘tiradilar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (onaboshisi) : “Monuz-monuz”, deydi. Qolganlari: “Ha monuz?” (Nimaning mo‘nguzi (shoxi) ?), deb so‘raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So‘ng onaboshi shu nomlar orasiga tuya, eshak kabi shoxi yo‘q hayvonlarning ismini aytib chalg‘itadi. Bolalardan birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi. [2,375]. Mahmud Qoshg‘ariyga ko‘ra, suv bilan bog‘liq “Mo‘nguz-mo‘nguz” o‘yinidan tashqari suvga sho‘ng‘ishda bahslashish ham bo‘lgan. [2,241].

Folklorshunos G'.Jahongirov "Mo'nguz-mo'nguz" o'yini shu kunlarga qadar saqlanib qolgan "Qushim boshi" o'yiniga qiyoslaydi. [1]. Shuningdek u Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida tilga olingan "O'tush-o'tush" o'ynini hozirgi "Musht ketdi" o'yiniga o'xshash ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy odatda qo'y oshig'i vositasida o'ynaladigan oshiq otish o'yini haqida ham ma'lumot keltiradi: "Po'k – o'yinda oshiqning orqasi bilan tutishi. Buni chik-po'k deyiladi". [2,144] Qizig'i shundaki, Mahmud Qoshg'ariy davridagi mazkur so'z ham va oshiq otish ham o'zgarishga uchramagan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da bu haqida quyidagicha izoh berilgan: "Chikka – oshiqning ichi chuqur tomoni sirtiga qaragan vaziyati; pukkaning aksi. Oshiq dumalaydi pukkami, chikka. S.Akbariy". [4] Umuman olganda, Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan oshiq bilan bog'liq o'yinlar keng tarqalganligi ilmiy adabiyotlarda ham ko'p bor ta'kidlab o'tilgan.

Farg'ona vodiysining qadimgi poytaxt shaharlaridan biri bo'lgan Qubo (Quva) shahristonida 1996–2008-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida IX-XII asrga mansub madaniy qatlamlarda turli xil sopol buyumlar bilan bir qatorda qo'y suyaklaridan o'ynash uchun ishlangan oshiqlar ham ko'p topilgan edi. Albatta, bunday topilmalar sopollardek tarixiy ahamiyatga ega bo'lmasa-da, elshunoslik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, o'sha davrlarda bolalar o'yinlari orasida oshiq bilan bog'liq o'yinlarning keng tarqalganini ko'rsatadi.

Keltirilgan o'yinlarning barchasi jismoniy tarbiya, psixologiya bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, jismoniy faollikni oshirishda, suyaklar harakatini yaxshilashda, bolalar ruhiyatini tozalashda, ulardagi negativlikni chiqarishda va asosiysi bir jamoa bo'lib faoliyat yuritishda katta ahamiyat kasb etadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Исҳоқов Б.Б. Болалар ўйинларининг этнографик хусусиятлари // Ўзбекистон этнологиясининг долзарб муаммолари. Тошкент-Наманган, 2007. 249 – б
2. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том... 445, 447-б
3. Маҳмуд Саттор. Ўзбек удумлари. – Т.: "Фан", 1993. 23-24-б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. – М.: "Рус тили нашриёти", 1981.
5. Шаниязов К.Ш. Узбеки-карлуки. Историко-этнографический очерк, – Т., 1964.